

**Ekologiya va atrof-muhit statistikasiga oid asosiy
indikatorlarni shakllantirish bo‘yicha
Uslubiy nizom**

Ekologiya va atrof-muhit statistikasiga oid asosiy indikatorlarni shakllantirish bo‘yicha Uslubiy nizom (keyingi o‘rinlarda – Uslubiy nizom) ekologiya va atrof-muhit holatini tavsiflovchi hamda ekologiya va atrof-muhit statistikasi hisobini yuritish imkonini beruvchi asosiy ekologik va atrof-muhit indikatorlarini shakllantirish mexanizmini belgilaydi.

Uslubiy nizomni ishlab chiqishda, O‘zbekiston Respublikasining ekologiya va atrof-muhit sohasi faoliyatini tartibga soluvchi me‘yoriy – huquqiy hujjatlari, shuningdek Birlashgan millatlar tashkilotining “O‘zbekistonda atrof muhit holatini monitoring qilishning ekologik ko‘rsatkichlari” taraqqiyot dasturi (BMTTD) materiallari, Birlashgan millatlar tashkilotining Yevropa iqtisodiy komissiyasining (BMTYeIK) “Ekologik ko‘rsatkichlar va ularga asoslangan baholash hisobotlari” ma‘ruzalari, Sharqiy Yevropa, Kavkaz va Markaziy Osiyo mamlakatlari (ShYeKMO) uchun Yevropa atrof muhit agentligi (YeAMA) va Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi (MDH) davlatlari tajribalaridan foydalanildi.

Uslubiy nizom O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020- yil 3- avgustdagi PQ-4796- son “O‘zbekiston Respublikasining milliy statistika tizimini yanada takomillashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori ijrosini ta‘minlash maqsadida, shuningdek, Statistik ma‘lumotlarni ishlab chiqarish jarayonlarining namunaviy modeli (Generic Statistical Business Process Model-GSBPM) talablari asosida ishlab chiqildi.

Uslubiy nizomda respublikaning ekologik va atrof muhit holatini tavsiflovchi asosiy statistik indikatorlar keltirilgan.

Ekologiya va atrof-muhit statistikasiga oid asosiy indikatorlarni ishlab chiqish uchun O‘zbekiston Respublikasining “Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi Qonuni hamda “Statistika dasturi” qonuniy asos bo‘lib hisoblanadi.

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Uslubiy nizomda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

Ekologiya va atrof-muhit statistikasi – birinchi navbatda, zararli moddalar bilan ifloslanish xususida tabiiy resurslar zaxirasi, ularning tarkibi va sifati, ulardan oqilona foydalanish va ularni himoya qilish darajasini o‘rganadigan statistika sohasi.

Ekologiya – inson va hayvonlarning yashash muhitini hayotga moslashtiradigan barcha tirik organizmlar va funksional jarayonlarni o‘rganishni qamrab oluvchi fanlararo murakkab (kompleks) bilim sohasi.

Atrof-muhit – insonlar va boshqa tirik organizmlarning yashash joyi sharoiti, vositalari bo‘lib xizmat qiluvchi insonlarning tabiiy yashash muhiti, biosfera. Keng ma’noda u tabiiy ekologik tizimlar tizimi sifatida tabiatni inson faoliyati natijasida o‘zgargan tabiiy muhitning bir qismi sifatidagi atrof-muhitni o‘z ichiga oladi.

Indikator – muhim hodisa va faktlar haqida tasavvur beradigan yoki hali aniqlab bo‘lmaydigan tendensiya yoki hodisani ushlash imkonini beruvchi ko‘rsatkich.

Indikatorning asosiy funksiyasi – xabardor qilish (axborot berish). Ma’lumotni foydalanuvchiga yetkazish uchun oddiylik zarur. Indikator murakkab haqiqatni soddalashtiradi. Indikator monitoring ma’lumotlarini to‘plash va tahlil qilish jarayonida olingan ma’lumotlarni “siqish” hisoblanadi. Ishlov berilmagan yoki tahlilsiz va sintezsiz statistik ma’lumotlar indikator bo‘lib xizmat qila olmaydi.

Ekologik indikator – tabiiy atrof-muhitning holati, unga inson ta’siri, bu ta’sirning oqibatlarini, shuningdek, amalga oshirilgan ekologik chora-tadbirlarning qanchalik samarali bo‘lishi mumkinligi yoki isbotlanganligi haqida tasavvur beradigan ko‘rsatkich.

Chiqindilarning statsionar manbalari – nomutanosib ravishda ularning zarar yetkazmasdan harakatlanishi maqsadlarini belgilash mumkin bo‘lmagan yoki mahalliy koordinatlar tizimiga nisbatan makonda doimiy joylashuvga ega bo‘lgan chiqindilar manbalari.

Chiqindilar – ishlab chiqarish yoki iste’mol qilish jarayonida xom ashyo, materiallar, xomaki mahsulotlar, boshqa buyumlar yoki mahsulotlarning hosil bo‘lgan qoldiqlari, shuningdek o‘zining iste’mol xususiyatlarini yo‘qotgan tovarlar (mahsulotlar).

Toksik chiqindilar – ular bilan ishlash jarayonida bo‘lgani kabi, hayotining alohida davrlarida va keyingi avlodlarida ham, inson organizmi bilan bevosita yoki bilvosita aloqada bo‘lganda kasalliklarni yoki sog‘liqda, shuningdek atrof muhitda salbiy o‘zgarishlarni keltirib chiqarishi mumkin bo‘lgan, tarkibida zararli moddalar bo‘lgan chiqindilar.

Notoksik chiqindilar – tarkibida organizmning fiziologik funksiyalari buzilishi va atrof muhit uchun salbiy oqibatlarni keltirib chiqarishga qodir moddalari bo‘lmagan chiqindilar.

Tabiatni muhofaza qilish joriy xarajatlari – korxona va tashkilotlarning barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan amalga oshiriladigan, tabiatni muhofaza qilishga mo‘ljallangan maqsadli xarajatlari miqdori.

Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar – ustuvor ekologik, ilmiy, madaniy, estetik, rekreatsion va sanitariya sog‘lomlashtirish ahamiyatiga ega bo‘lgan, to‘liq yoki qisman, doimiy yoki vaqtinchalik xo‘jalik faoliyatidan olib qo‘yilgan yerlar yoki suv zonalarini hisoblanadi.

Buzilgan yerlar – asl qiymatini yo‘qotgan va atrof muhitga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi manbai bo‘lib hisoblanadigan yerlar.

Ishlov berilgan yerlar – tuproq qatlamining buzilishi bilan bog‘liq bo‘lib, tashkilotning iqtisodiy faoliyati tugallanishi sababli ehtiyoj to‘liq yoki qisman yo‘qolgan yerlar.

Yaroqli holga keltirilgan yerlar – qishloq xo‘jaligida va boshqa sohalarda foydalanish uchun yaroqli holga keltirilgan va yer egalari va yerdan foydalanuvchilarga o‘tkazilgan yerlar.

O‘rmonlarni qayta tiklash – ilgari o‘rmon bilan qoplangan maydonlarda madaniy o‘rmonzorlarni barpo etish, uning tabiiy yangilanishiga ko‘maklashish, o‘rmon daraxtlari ko‘chatlarini o‘tqazish va urug‘larini ekishni o‘z ichiga oladi.

O‘rmonzorlar barpo etish – oldin o‘rmon daraxtlari o‘smagan maydonlarda madaniy o‘rmonlar barpo etish (dalalar, o‘tloqlar, qumliklar va h.k.).

Madaniy o‘rmonzorlar umumiy fondi – o‘rmonzorlar barpo etish va o‘rmonlarni qayta tiklash uchun yaroqli bo‘lgan barcha maydonlarni o‘z ichiga oladi.

2–bob. Indikatorlarni shakllantirish manbai

2. Ekologiya va atrof-muhit sohasidagi asosiy indikatorlarni tavsiflovchi ma’lumotlar ekologiya va atrof-muhit statistikasi bo‘yicha quyidagi toifadagi sub’ektlar tomonidan statistika organlariga taqdim etiladigan tegishli yillik davriylikda statistika hisobotlari asosida shakllantiriladi:

1 eko (muhofaza) shakli atmosfera havosini ifloslantiruvchi statsionar manbalarga ega, suv obyektlari va joy relesini ifloslantiruvchi oqova manbalarga ega, toksik va notoksik chiqindilar hosil qiladigan yirik tashkilotlar, mikrofirmalar va kichik korxonalar tomonidan – atrof-muhitni muhofaza qilish to‘g‘risida kuzatuv;

1 eko (qo'riqxonona) shakli davlat qo'riqxonalari, majmua (landshaft) buyurtma qo'riqxonalari, davlat biosfera rezervatlari va milliy tabiat bog'lari tomonidan – muhofaza etiladigan tabiiy hududlar bo'yicha kuzatuv;

1 eko (rekultivatsiya) shakli yer qatlami buzilishi bilan bog'liq ishlarni amalga oshiruvchi tashkilotlarning boshqaruv organlari tomonidan – yerlarni yaroqli holga keltirish to'g'risida kuzatuv;

1 o'x (o'rmon) shakli o'rmon parvarishi ishlarini bajaruvchi o'rmon xo'jaliklari tomonidan – o'rmon parvarishi ishlarini o'tkazish to'g'risida hisobot;

1 ox (ovchilik) shakli yovvoyi hayvonlarni qo'riqlash va ko'paytirish tadbirlarini bajaruvchi tashkilotlar tomonidan – ovchilik xo'jaligi faoliyati to'g'risida kuzatuv.

3-bob. Ekologiya va atrof-muhit statistikasiga oid asosiy indikatorlarni shakllantirish

3. Ekologiya va atrof-muhit statistikasiga oid asosiy indikatorlar O'zbekiston Respublikasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri bo'yicha ekologiyaga oid tegishli statistika hisobotlari shakllari asosida statistika dasturida o'rnatilgan muddatlarga mos ravishda va mazkur Uslubiy nizomda belgilangan tamoyillardan foydalangan holda shakllantiriladi (Uslubiy nizomga ilova).

4. **Statsionar manbalardan atmosferaga chiqadigan ifloslantiruvchi moddalar indikator** – atmosferaga chiqarilgan ifloslantiruvchi moddalarning umumiy hajmini tavsiflovchi tegishli atrof-muhitni muhofaza qilish to'g'risidagi statistika hisobotlari ma'lumotlaridan shakllantiriladi.

Statsionar manbalardan atmosfera havosiga chiqadigan ifloslantiruvchi moddalar quyidagi guruhlar va turlari bo'yicha hisobga olinadi:

qattiq;

gazsimon va suyuq .

shundan:

sulfat angidridi;

uglerod oksidi;

azot dioksidi;

azot oksidi;

uglevodorodlar (UOB siz);

uchuvchan organik birikmalar (UOB);

boshqa gazsimon va suyuq.

Guruhlari va turlari bo'yicha ifloslantiruvchi moddalar quyidagi ko'rsatkichlardan iborat:

hosil bo'lgan ifloslantiruvchi moddalar miqdori, jami (tonna);

tozalash inshootlariga tushgan ifloslantiruvchi moddalar miqdori, jami (tonna);

ushlab qolingani va zararsizlantirilgan ifloslantiruvchi moddalar miqdori, jami (tonna, %);

utilizatsiya qilingan ifloslantiruvchi moddalar miqdori (tonna);

atmosfera ga chiqarilgan ifloslantiruvchi moddalar miqdori, jami (tonna).

Atmosfera ga chiqarilgan ifloslantiruvchi moddalar, shuningdek, suv obyektlariga va joy relefiga tashlangan ifloslantiruvchi moddalar miqdori hosil bo'lgan ifloslantiruvchi moddalar miqdoridan ushlab qolingani va zararsizlantirilgan ifloslantiruvchi moddalar miqdorini ayirish yo'li bilan quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$IM_{chiq} = IM_{hos} - IM_{ushl.zar}$$

bu yerda:

IM_{chiq} – atmosfera ga chiqarilgan ifloslantiruvchi moddalar, shuningdek, suv obyektlariga va joy relefiga tashlangan ifloslantiruvchi moddalar miqdori;

IM_{hos} – hosil bo'lgan ifloslantiruvchi moddalar miqdori;

$IM_{ushl.zar}$ – ushlab qolingani va zararsizlantirilgan ifloslantiruvchi moddalar miqdori.

Ushlab qolingani va zararsizlantirilgan ifloslantiruvchi moddalarning foizdagi miqdori ushlab qolingani va zararsizlantirilgan ifloslantiruvchi moddalar miqdorini hosil bo'lgan ifloslantiruvchi moddalar miqdoriga bo'lish va 100 ga ko'paytirish yo'li bilan quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$IM_{ushl.zar,} = \frac{IM_{ushl.zar}}{IM_{hos}} \times 100 \%$$

bu yerda:

$IM_{ushl.zar}$ – ushlab qolingani va zararsizlantirilgan ifloslantiruvchi moddalar miqdori;

IM_{hos} – hosil bo'lgan ifloslantiruvchi moddalar miqdori.

Atmosfera ga chiqarilgan ifloslantiruvchi moddalar, shuningdek, suv obyektlariga va joy relefiga tashlangan ifloslantiruvchi moddalarning aholi jon boshiga to'g'ri keladigan miqdori atmosfera ga chiqarilgan ifloslantiruvchi moddalar, shuningdek, suv obyektlariga va joy relefiga tashlangan ifloslantiruvchi moddalar miqdorini doimiy aholining o'rtacha yillik soniga bo'lish yo'li bilan formula bo'yicha aniqlanadi:

$$IM_{ajb} = \frac{IM_{chiq}}{DAO'YS}$$

bu yerda:

IM_{ajb} – atmosferaga chiqarilgan ifloslantiruvchi moddalar, shuningdek, suv obyektlariga va joy relefiga tashlangan ifloslantiruvchi moddalarning aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan miqdori;

IM_{chiq} – atmosferaga chiqarilgan ifloslantiruvchi moddalar, shuningdek, suv obyektlariga va joy relefiga tashlangan ifloslantiruvchi moddalar miqdori;

$DAO'YS$ – doimiy aholining yillik o‘rtacha soni.

5. Chiqindilar hosil bo‘lishi, foydalanilishi va joylashtirilishi indikatori - tuproqning ekologik holati va ahamiyati to‘g‘risida ma’lumot beruvchi, shuningdek mamlakatda chiqindi hosil bo‘lishining jadalligi va sanoatlashtirilish turini, shu kabi foydalanilayotgan xavfli chiqindilar hosil qiluvchi texnologiyalarni, sanoat faoliyati va jarayonlarni aniqlashga imkon beruvchi tegishli atrof muhitni muhofaza qilish to‘g‘risidagi statistika hisobotlari shakllari ma’lumotlaridan shakllantiriladi.

Chiqindilar quyidagi guruhlar bo‘yicha hisobga olinadi:

Toksik chiqindilar, jami

shu jumladan:

qayta ishlanmaydigan va qayta ishlanishi kerak bo‘lgan toksik chiqindilar – jami, tonna;

shu jumladan:

1 – xavflilik klassi;

2 – xavflilik klassi;

3 – xavflilik klassi;

4 – xavflilik klassi.

Notoksik chiqindilar, jami

shu jumladan:

qayta ishlanmaydigan va qayta ishlanishi kerak bo‘lgan notoksik chiqindilar – jami, tonna;

shu jumladan:

1 – xavflilik klassi;

2 – xavflilik klassi;

3 – xavflilik klassi;

4 – xavflilik klassi;

5 – xavflilik klassi.

Hisobot davri oxiriga hosil bo'lgan chiqindilar miqdori balans usulida, shartli tasviri quyidagi umumiy ko'rinishga ega formula bo'yicha aniqlanadi:

$$CH_o = (CH_b + CH_{hos} + CH_{tush}) - (CH_{foy} + CH_{zar} + CH_{utl} + CH_{o'tk} + CH_{joy})$$

hisobot davri oxiriga hosil bo'lgan chiqindilar miqdori (CH_o):

hisobot davri boshiga mavjud (CH_b);

tashkilotlarda hosil bo'lgani (CH_{hos});

boshqa tashkilotlardan kelib tushdi (CH_{tush});

tashkilotda foydalanildi (CH_{foy});

tashkilotda zararsizlantirildi (CH_{zar});

utilizatsiya qilindi (CH_{utl});

boshqa tashkilotlarga o'tkazildi ($CH_{o'tk}$);

tashkilotga qarashli bo'lgan joylarga joylashtirildi (CH_{joy}).

6. Aholi jon boshiga chiqindilar hosil bo'lishi indikatori – hosil bo'lgan chiqindilar hajmini doimiy aholining yillik o'rtacha soniga bo'lish yo'li bilan formula bo'yicha aniqlanadi:

$$CH_{hos\ ajb} = \frac{CH_{hos}}{DAO'YS}$$

bu yerda:

$CH_{hos\ ajb}$ – aholi jon boshiga hosil bo'lgan chiqindilar miqdori;

CH_{hos} – hosil bo'lgan chiqindilar hajmi;

$DAO'YS$ – doimiy aholining yillik o'rtacha soni.

7. Toksik 1 - 3 - xavflilik klassi ishlab chiqarish chiqindilarining aholi jon boshiga hosil bo'lishi indikatori.

Mazkur indikator BRM milliy indikatori hisoblanadi (indikator 12.4.2.1.).

Indikator hosil bo'lgan 1- 3- xavflilik klassi ishlab chiqarish chiqindilari hajmini doimiy aholining yillik o'rtacha soniga bo'lish yo'li bilan, 6- bandda keltirilgan formuladan foydalangan holda aniqlanadi.

8. Zararsizlantirilgan chiqindilarning hosil bo'lgan chiqindilar umumiy hajmidagi ulushi indikatori – zararsizlantirilgan chiqindilar hajmini hosil bo'lgan chiqindilarning umumiy hajmiga bo'lish va 100 ga ko'paytirish yo'li bilan, quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$CH_{zar} = \frac{CH_{zar}}{CH_{hos}} \times 100 \%$$

9. Hosil bo'lgan ishlab chiqarish chiqindilarining umumiy hajmida zararsizlantirilgan 1- 3- xavflilik klassi chiqindilar ulushi indikatori.

Mazkur indikator BRM milliy indikatorini ro'yxatiga kiradi (12.4.2.2.).

Indikator zararsizlantirilgan 1 - 3 - xavflilik klassi ishlab chiqarish chiqindilari hajmini hosil bo'lgan chiqindilarning umumiy hajmiga bo'lish va 100 ga ko'paytirish yo'li bilan, 8- badda keltirilgan formuladan foydalangan holda aniqlanadi.

10. Atrof-muhitni muhofaza qilish joriy xarajatlari indikatorini – ekologik vaziyatni barqarorlashtirish uchun zarur bo'lgan xarajatlarni tavsiflovchi tegishli atrof muhitni muhofaza qilish to'g'risidagi statistika hisobotlari ma'lumotlaridan shakllantiriladi.

Atrof-muhitni muhofaza qilish joriy xarajatlari quyidagi ko'rsatkichlar bo'yicha hisobga olinadi va quyidagi xarajatlarni (ming so'm) jamlash yo'li bilan aniqlanadi:

$$JX_{jami} = JX_{suvresurs} + JX_{atmosfera} + JX_{erresurs} + JX_{bioresurs}$$

bu yerda:

JX_{jami} – atrof-muhitni muhofaza qilish joriy xarajatlari, jami;

$JX_{suvresurs}$ – suv resurslaridan oqilona foydalanish va muhofaza qilish joriy xarajatlari, jami;

$JX_{atmosfera}$ – atmosfera havosini muhofaza qilish joriy xarajatlari;

$JX_{erresurs}$ – yer resurslaridan oqilona foydalanish va muhofaza qilish joriy xarajatlari;

$JX_{bioresurs}$ – takror ishlab chiqarish va biologik resurslardan foydalanishni muhofaza qilish joriy xarajatlari.

Suv resurslaridan oqilona foydalanish va muhofaza qilish joriy xarajatlari – jami ($JX_{suvresurs}$) o'z ichiga oladi:

oqar suvlarni qabul qilganligi va tozalanganligi uchun boshqa tashkilotlarga to'lovlar;

oqova suv tozalash inshootlarini rekonstruktsiya qilish yoki qurish uchun;

suv ta'minotining aylanma yoki ketma-ketlikdagi tizimlarini joriy etish uchun;

boshqalar (suvni muhofaza qilish inshootlarini joriy ta'mirlash, suv hisoblagichlarni o'rnatish, oqova suvlarni tabiiy muhitga tashlash manbalarini monitoring qilish).

Yer resurslaridan oqilona foydalanish va muhofaza qilish joriy xarajatlari jami ($JX_{erresurs}$) o'z ichiga oladi:

ishlab chiqarish va iste'mol chiqindilari bilan ifloslanishdan muhofaza qilish xarajatlari;

yerlarni yaroqli holga keltirish xarajatlari;

chiqindilarni qabul qilganligi, saqlaganligi va yo‘q qilganligi uchun boshqa tashkilotlarga to‘langan xarajatlarni o‘z ichiga oladi.

11. Atrof muhitni ifloslantirganligi uchun to‘lovlar indikatori – tabiatdan foydalanish bilan bog‘liq bo‘lgan har qanday faoliyatni amalga oshiruvchi yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan atrof muhitga yetkazilgan zararni qoplash shaklini tavsiflovchi tegishli atrof-muhitni muhofaza qilish to‘g‘risidagi statistika hisobotlari ma’lumotlaridan shakllantiriladi.

Atrof muhitni ifloslantirganligi uchun to‘lovlar quyidagi ko‘rsatkichlar bo‘yicha hisobga olinadi va ularning umumiy hajmini (ming so‘m) aniqlash uchun quyidagi formuladan foydalaniladi:

$$KT_{jami} = TL_{me'yor} + TL_{me'yorortiq} + DAVO_{zarar} + PEN_{muddat}$$

bu yerda:

KT_{jami} – kompensatsiya to‘lovlari, jami;

$TL_{me'yor}$ – tabiiy muhitni me’yorda ifloslaganligi uchun to‘lov, jami;

$TL_{me'yorortiq}$ – Ifloslantiruvchi moddalarni me’yoridan ortiq chiqarganligi (to‘kkanligi, oqizganligi), chiqindilarni joylashtirganligi uchun to‘lov, jami;

$DAVO_{zarar}$ – tabiatni muhofaza qilish qonunchiligi buzilganligi natijasida yetkazilgan zararni qoplash uchun undirib olingan mablag‘lar (da‘volar), jami;

PEN_{muddat} – to‘lov muddati o‘tganligi uchun penya.

Tabiiy muhitni me’yorda ifloslaganligi uchun to‘lov, jami ($TL_{me'yor}$) quyidagi ko‘rsatkichlarni o‘z ichiga oladi:

suv obyektlariga va joylar relefiga;

atmosfera havosiga;

kommunal kanalizatsiya tarmoqlariga;

chiqindilarni joylashtirish uchun.

Ifloslantiruvchi moddalarni me’yoridan ortiq chiqarganligi (to‘kkanligi, oqizganligi), chiqindilarni joylashtirganligi uchun to‘lov, jami ($TL_{me'yorortiq}$) quyidagi ko‘rsatkichlarni o‘z ichiga oladi:

suv obyektlariga va joylar relefiga;

atmosfera havosiga;

kommunal kanalizatsiya tarmoqlariga;

chiqindilarni joylashtirish uchun.

12. Atrof muhitni muhofaza qilish bo‘yicha asosiy ishlab chiqarish fondlarining yillik o‘rtacha (boshlang‘ich (qayta tiklash) qiymati (ming so‘m) indikatori – tovarlar ishlab chiqarish va sotish bilan bog‘liq jarayonlarda ishtirok

etuvchi fondlarni qamrab oluvchi tegishli atrof-muhitni muhofaza qilish to'g'risidagi statistika hisobotlari ma'lumotlaridan shakllantiriladi.

Indikator tarkibiga quyidagi ko'rsatkichlar kiradi:

suv resurslaridan oqilona foydalanish va muhofaza qilish bo'yicha;

atmosfera havosini muhofaza qilish bo'yicha;

ishlab chiqarish va iste'mol chiqindilarini joylashtirish, saqlash va qayta ishlash bo'yicha;

takror ishlab chiqarish va biologik resurslardan foydalanishni muhofaza qilish bo'yicha.

13. Atrof muhitni muhofaza qilish bo'yicha asosiy ishlab chiqarish fondlarining kapital ta'mirlash xarajatlari (ming so'm) indikatori – asosiy vositalarni saqlash va ularning dastlabki holatini tiklash bo'yicha ishlarning majmuasini tavsiflovchi tegishli atrof-muhitni muhofaza qilish to'g'risidagi statistika hisobotlari shakllari ma'lumotlaridan shakllantiriladi va bular:

atmosfera havosini ifloslantiruvchi zararli moddalarni tutib qoladigan zararsizlantiradigan inshoot, qurilma va uskunalar uchun;

oqar suvlarni tozalash inshoot va qurilmalari hamda resurslardan oqilona foydalanish uchun;

ishlab chiqarish va iste'mol chiqindilarini joylashtirish, saqlash va qayta ishlash;

takror ishlab chiqarish va biologik resurslardan foydalanishni muhofaza qilish.

14. Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar indikatori – biologik, landshaft xilma-xilligini va ekologik muvozanatni saqlash uchun mo'ljallangan yagona ekologik tizimni tashkil etadigan tegishli muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risidagi statistika hisobotlari ma'lumotlaridan shakllantiriladi.

Indikatorning asosiy ko'rsatkichlari hisoblanadi:

Umumiy maydon, jami, gektar.

shu jumladan:

o'rmon bilan qoplangan;

suv bilan qoplangan.

Mavjud o'simlik turlari, jami, birlikda.

shundan, noyoblari.

Mavjud hayvonlar turlari, birlikda.

sut emizuvchilar, shundan, noyoblari;

sudralib yuruvchilar, shundan, noyoblari.

Mavjud qushlar turlari, jami, shundan, noyoblari, birlikda.

Mavjud baliqlar turlari, jami, shundan, noyoblari, birlikda.

15. Davlat qo‘riqxonasi, majmua (landshaft) buyurtma qo‘riqxonasi, davlat biosfera rezervati va milliy tabiat bog‘ini moliyalashtirish manbalari, jami (ming so‘m) indikatori.

Indikator quyidagi ko‘rsatkichlar yig‘indisidan jamlanadi:

davlat budjeti mablag‘lari;

ekologiya, atrof muhit va chiqindilar bilan bog‘liq ishlarni amalga oshirish jamg‘armasi mablag‘lari;

ilmiy – tadqiqot, tabiatni muhofaza qilish, reklama – noshirlik va ma’rifiy faoliyati daromadlari;

muhofaza etiladigan tabiiy hududlarga yetkazilgan zararni qoplash hisobidan tushumlar;

muhofaza etiladigan tabiiy hududlar rejimini buzganligi uchun undirilgan jarimalar yig‘indisi;

ekoturizm, turizm.

16. Biotexnik tadbirlar o‘tkazish xarajatlari (ming so‘m) indikatori.

Indikator quyidagi ko‘rsatkichlar yig‘indisidan tarkib topadi:

hayvonlar uchun ozuqa tayyorlash;

qo‘shimcha oziqlantirish;

ozuqabop ekinlar ekish;

hayvonot dunyosining hisobini yuritish;

o‘simliklar dunyosining hisobini yuritish va boshqalar.

17. Yerlarni yaroqli holga keltirish indikatori – inson faoliyati natijasida unumdorligi sezilarli darajada pasaygan yer resurslarini ekologik va iqtisodiy tiklash bo‘yicha chora-tadbirlar majmui aks ettirilgan tegishli yerlarni yaroqli holga keltirish to‘g‘risidagi statistika hisobotlari ma’lumotlaridan shakllantiriladi.

Indikator quyidagi ko‘rsatkichlar bilan tavsiflanadi:

mavjud buzilgan yerlar, jami, gektar;

buzilgan yerlarga ishlov berildi, jami, gektar;

yaroqli holga keltirilgan yerlar, jami, gektar;

hosildor qatlami to‘plangan yerlar, ming m³;

erning olib tashlangan hosildor qatlami, ming m³; gektar;

erning hosildor qatlamidan foydalanish, ming m³;

erning hosildor qatlamini ochish bilan yaxshilangan kam hosildor yerlar, jami, gektar.

18. Hisobot yili oxiriga mavjud buzilgan yerlar indikatori – quyidagi formula bo‘yicha aniqlanadi:

$$BE_{y_0} = BE_{y_b} + BE_{hy} - YHKE_{hy}$$

bu yerda:

BE_{yo} – hisobot yili oxiriga mavjud buzilgan yerlar;

BE_{yb} – hisobot yili boshiga mavjud buzilgan yerlar;

BE_{hy} – hisobot yilida mavjud buzilgan yerlar;

$YHKE_{hy}$ – hisobot yilida yaroqli holga keltirilgan yerlar.

19. Hisobot yili oxiriga mavjud ishlov berilgan buzilgan yerlar indikatori – quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$IBBE_{yo} = IBBE_{yb} + IBBE_{hy} - YHKE_{hy}$$

bu yerda:

$IBBE_{yo}$ – hisobot yili oxiriga ishlov berilgan buzilgan yerlar;

$IBBE_{yb}$ – hisobot yili boshiga ishlov berilgan buzilgan yerlar;

$IBBE_{hy}$ – hisobot yilida ishlov berilgan buzilgan yerlar;

$YHKE_{hy}$ – hisobot yilida yaroqli holga keltirilgan yerlar.

20. Hisobot yili oxiriga yaroqli holga keltirilgan yerlar indikatori – quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$YHKE_{yo} = YHKE_{yb} + YHKE_{hy}$$

bu yerda:

$YHKE_{yo}$ – hisobot yili oxiriga yaroqli holga keltirilgan yerlar;

$YHKE_{yb}$ – hisobot yili boshiga yaroqli holga keltirilgan yerlar;

$YHKE_{hy}$ – hisobot yilida buzilgan yerlarga ishlov berildi.

21. Hisobot yili oxiriga hosildor qatlami to'plangan yerlar indikatori – quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$HQTE_{yo} = HQTE_{yb} + HQOTE_{hy} - HQFE_{hy}$$

bu yerda:

$HQTE_{yo}$ – hisobot yili oxiriga hosildor qatlami to'plangan yerlar;

$HQTE_{yb}$ – hisobot yili boshiga hosildor qatlami to'plangan yerlar;

$HQOTE_{hy}$ – hisobot yilida hosildor qatlami olib tashlangan yerlar;

$HQFE_{hy}$ – hisobot yilida hosildor qatlamidan foydalanilgan yerlar.

22. O'rmon parvarishi ishlarini o'tkazish indikatori – kesilgan o'rmonlar xom ashyo resurslari o'rnining uzluksiz ravishda to'ldirilishini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni va ularning iqtisodiy jihatdan qimmatli yuqori hosildor daraxt ko'chatlarini o'stirish yo'li bilan ko'p qirrali muhitni shakllantirish funksiyalarini saqlab qolishni tavsiflovchi o'rmon parvarishi ishlarini o'tkazish to'g'risidagi statistika hisobotlari ma'lumotlaridan shakllantiriladi.

Indikator quyidagi ko'rsatkichlardan shakllantiriladi:

o‘rmon fondining umumiy maydoni – o‘rmon va butazorlar maydoni ko‘rsatkichlaridan shakllantiriladi;

o‘rmonlarni qayta tiklash va o‘rmonzorlar barpo etish – o‘rmon daraxtlari ko‘chatlarini o‘tqazish va urug‘ini ekish; o‘rmonning tabiiy yangilanishiga ko‘maklashish ko‘rsatkichlaridan jamlanadi, gektar;

“o‘rmonlarni qayta tiklash va o‘rmonzorlar barpo etish” umumiy ko‘rsatkichidan “Orol dengizining suvi qurigan tubi va orolbo‘yi mintaqasida cho‘l o‘simliklari urug‘i va ko‘chatlarini ekish hamda qayta tiklash, gektar” indikatori ajratiladi.

o‘rmon bilan qoplangan maydonga o‘tkazilgan o‘rmon daraxtlarining maydoni, gektar;

tashkilotlar bilan tuzilgan shartnoma asosida obyektlar atrofida himoya daraxtlarini barpo etish va ko‘kalamzorlashtirish ishlarini amalga oshirish, gektar;

yaylov yerlarida shartnoma asosida himoya daraxtlarini barpo etish, gektar;

qishloq xo‘jaligi tashkilotlari yerlarida shartnoma asosida ixota daraxtzorlarini barpo etish, gektar;

bir martalik hisobda madaniy o‘rmonlarning parvarishi, jami, gektar;

tayyorlangan (sof) daraxt va buta turlari urug‘lari, jami, shundan ignabargli, kg;

niholxonaning urug‘ bo‘limini tashkil etish, gektar;

ko‘chatxonaning tarbiya va ko‘chat (qalamcha) bo‘limini tashkil etish, gektar;

mevalar tayyorlash, jami, shu jumladan, rezavorlar, yong‘oq mevalilar va boshqalar, kg, ming so‘m;

tayyorlangan dorivor, texnik va oziqbop o‘simliklar xom ashyosi – jami, shu jumladan, zirk, qizil do‘lana, oblepixa, na‘matak, tog‘ rayhoni, zira, qizilmiya va boshqalar, kg, ming so‘m;

o‘rmonchilik va yog‘och tayyorlash sohasida yetishtirilgan mahsulot (xizmat)lar qiymati, jami, ming so‘m. Mazkur indikator asosiy foydalanish uchun kesish paytida tayyorlangan o‘tinlar va o‘rmonlarni parvarish qilish, kesish, o‘rmon daraxtlarini rekonstruksiya qilish va tanlanma sanitariya kesish, o‘rmonlarni o‘stirish, o‘rmonlarni qayta tiklash va o‘rmon xo‘jaligini yuritish xarajatlari, o‘rmonchilik va yog‘och tayyorlash bilan bog‘liq ko‘rsatilgan texnik xizmatlarning joriy narxlardagi qiymatlarini o‘z ichiga oladi.

23. Ovchilik xo‘jaligi faoliyati indikatori – ovchilik turizmini rivojlantirish uchun yaratilgan shart sharoitlarni, fuqarolarning ovchilik, ov mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojlarni maksimal darajada qondirish, ov maydonlarining tabiiy ishlab chiqarilishini saqlash va ularning biologik xilma xilligini oshirish asosida ov qilinadigan hayvonlar populyatsiyasining maksimal ekologik asoslangan

mahsulotlarini rag'batlantirish va daromadlarining ko'payishini ta'minlash, ov faoliyatining samaradorligini oshirish orqali budjetga tushumlarni ifodalovchi ovchilik xo'jaligi faoliyati to'g'risidagi statistika hisobotlari ma'lumotlaridan shakllantiriladi.

Indikatorning asosiy ko'rsatkichlari quyidagilar hisoblanadi:

ovchilik xo'jaligini yuritishga qilingan umumiy xarajatlar, jami, ming so'm;
biotexnik tadbirlar o'tkazish (ozuqabop ekinlarni ekish va boshqalar), ming so'm;

ovchilik xo'jaligida band bo'lgan ishlovchilar, kishi;
ovchilikka biriktirilgan yer maydoni, ming gektar;
yovvoyi hayvonlar soni hisobi o'tkazilgan maydon, ming gektar;
ozuqabop ekinlarni ekish, gektar;

ozuqa jamg'arish, tonna;

sun'iy ovqatlantirish oxurlarini yasash, dona;

sun'iy uyalarni yasash, dona;

sun'iy urchitish moslamalarini o'rnatish, dona;

yosh baliqlarni saqlab qolish, ming dona;

baliqlar o'rnini to'ldirish, ming dona;

qamish o'rish, m²;

daraxt va butalar ko'chatlarini o'tqazish, dona;

ovchilik xo'jaligi faoliyati daromadlari, ming so'm;

ov hayvonlari va qushlarni sun'iy ko'paytirish, birlik, bosh, ming so'm;

ov hayvonlari va qushlarining turlari bo'yicha umumiy soni va ularni ovlash, bosh;

ovchilik natijalari, miqdori, ming so'm;

ov xo'jaligida yetishtirilgan mahsulot (xizmat)lar qiymati, jami, ming so'm.

Mazkur indikator ov natijasida olingan yovvoyi va yirtqich hayvonlar qiymatlarini, yovvoyi hayvonlarni muhofaza qilish, ularning sonini hisobga olish va joylashtirish, ovchilikni tashkil etish va ov iqtisodiy kuzatuvlari, ovchilik hamda yovvoyi hayvonlar va yirtqich hayvonlarni ovlash va ko'paytirish sohasida ko'rsatilgan xizmatlar qiymatlari kabi ovchilik xo'jaligini yuritish xarajatlarini o'z ichiga oladi.

Shakllantirilgan ma'lumotlar Statistika agentligining rasmiy to'plamlari va nashrlari, BMTning Statistika boshqarmasi hamda boshqa xalqaro tashkilotlar savolnomalari (savolnomasiga asosan), manfaatdor vazirlik va idoralarga, shuningdek, boshqa so'rovlarga asosan taqdim etiladi.

4-bob. Ma'lumotlarni shakllantirish va tarqatish

24. Ekologiya statistikasi bo'yicha statistika hisobotlari shakllari asosida umumlashtirilgan asosiy ekologik indikatorlar bo'yicha ma'lumotlar "Atrof-muhitni muhofaza qilish, o'rmon va ovchilik xo'jaligining asosiy ko'rsatkichlari" statistika byulletenida aks ettiriladi.

25. Ekologiya va atrof-muhit statistikasiga oid asosiy indikatorlar dinamik qatorlar, to'plamlar, shuningdek, ichki va tashqi foydalanuvchilarning so'rovlari bo'yicha, xalqaro tashkilotlar savolnomalari va Statistika agentligining rasmiy veb-saytlariga joylashtirish ko'rinishida tarqatiladi.

5-bob. Yakuniy qoidalar

26. Ushbu uslubiy nizom ekologiya va atrof-muhit statistikasiga oid asosiy indikatorlarni shakllantirish, ekologiya statistikasi bo'yicha ishonchli statistik ma'lumotlarni shakllantirish va ko'rsatkichlar hisoblash maqsadida statistika organlari tomonidan foydalanish uchun mo'ljallangan bo'lib, ushbu sohada ma'muriy qarorlar qabul qilishda, tergov va nazoratda, sud muhokamasida, ayrim huquqiy bahs-munozaralarni hal etish va hokazolarda foydalanilish tavsiya etilmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida" O'zbekiston Respublikasining Qonuni (1993- yil 29- yanvar).

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi PF-5024- son Farmoni (2017- yil 22- aprel).

3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasida atrof tabiiy muhitning davlat monitoringi tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi 737- son qarori (2019- yil 5- sentabr).

4. Yevropa iqtisodiy komissiyasining (BMTYeIK) "Ekologik ko'rsatkichlar va ularga asoslangan baholash hisobotlari" ma'ruzasi (2007- yil 4- avgust)
<https://unece.org/fr/publications/>